



BUXGALTERIYA HISOBINI AVTOMATLASHTIRISHNING DOLZARBLIGI VA MILLIY HAMDA XALQARO DASTURIY TA'MINOTLAR TAHLILI

Nastinov Isomiddin Sirojiddin o'g'li,
Bosh mutaxassis, Iqtisodiyot va moliya vazirligi
E-mail: isomiddin.nastinov@mail.ru

Annotatsiya: Mazkur tezisda O'zbekiston bozorida qo'llanilayotgan buxgalteriya hisobini avtomatlashtirish dasturlari, jumladan, 1C: Buxgalteriya, 1UZ, CFO.UZ va milliy ERP tizimlarining funksional imkoniyatlari, afzalliklari va amaliy qo'llanilish darajasi yoritilgan. Shuningdek, xalqaro amaliyotda keng tarqalgan QuickBooks, Xero, Sage Accounting dasturlari tahlil qilinib, ularning O'zbekiston sharoitiga moslashuvchanligi, funktsionalligi va narx siyosati o'rganildi. Buxgalteriya hisobini yuritish jarayonlarini avtomatlashtirish imkoniyatlarini o'rganish yuzasidan milliy va xalqaro amaliyotga mos keladigan dasturiy mahsulotlar bo'yicha tadbirkorlik subyektlari o'rtasida so'rovnoma o'tkazildi va so'rovnoma natijalari asosida tadbirkorlik subyektlari tomonidan foydalanilayotgan dasturiy mahsulotlar va ular uchun to'lanayotgan yillik xarajatlar tahlil etildi. Olingan natijalar asosida mamlakatda buxgalteriya hisobini raqamlashtirish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: Buxgalteriya hisobi, avtomatlashtirish, raqamlashtirish, 1C, 1UZ, CFO.UZ, ERP tizimlari, QuickBooks, Xero, Sage, Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), XBRL.

Annotation: This thesis examines accounting automation software currently used in the Uzbek market, including 1C: Accounting, 1UZ, CFO.UZ, and national ERP systems, highlighting their functional capabilities, advantages, and practical application levels. Additionally, internationally popular programs such as QuickBooks, Xero, and Sage Accounting were analyzed to assess their adaptability, functionality, and pricing policy in the context of Uzbekistan. To explore opportunities for automating accounting processes, a survey was conducted among business entities regarding both national and international software solutions. Based on the survey results, the software products used by businesses and the annual costs associated with them were analyzed. On the basis of these findings, scientific and practical recommendations were developed to improve the digitization of accounting processes in the country.

Keywords: Accounting, automation, digitization, 1C, 1UZ, CFO.UZ, ERP systems, QuickBooks, Xero, Sage, International Financial Reporting Standards (IFRS), XBRL.

Аннотация: В данном тезисе рассматриваются программы автоматизации бухгалтерского учета, применяемые на рынке Узбекистана, включая 1C:

Бухгалтерия, 1UZ, CFO.UZ и национальные ERP-системы, их функциональные возможности, преимущества и уровень практического применения. Также проведен анализ программ, широко используемых в международной практике, таких как QuickBooks, Xero и Sage Accounting, их адаптивность к условиям Узбекистана, функциональность и ценовая политика. С целью изучения возможностей автоматизации ведения бухгалтерского учета был проведен опрос среди субъектов предпринимательства по национальным и международным программным продуктам, и на основе результатов опроса проанализированы программные продукты, используемые субъектами предпринимательства, и ежегодные расходы на их приобретение. По полученным данным разработаны научно-практические рекомендации по совершенствованию процесса цифровизации бухгалтерского учета в стране.

Ключевые слова: Бухгалтерский учет, автоматизация, цифровизация, 1C, 1UZ, CFO.UZ, ERP-системы, QuickBooks, Xero, Sage, Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), XBRL.

Kirish.

O‘zbekistonda iqtisodiy islohotlarning takomillashuvi, biznes jarayonlarining modernizatsiya qilinishi va raqamli iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilishi hisob-kitob tizimlarini avtomatlashtirishni yangi bosqichga olib chiqmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o‘tish jarayoni, davlat organlariga elektron hisobdorlik tizimining kengayishi va moliyaviy ma’lumotlarning tashkiliy sifatiga qo‘yilayotgan talablarning ortishi natijasida buxgalteriya hisobini yuritishda zamonaviy dasturiy mahsulotlardan foydalanish zarurati yanada kuchaymoqda. Shundan kelib chiqib, O‘zbekiston bozorida foydalanilayotgan milliy va xorijiy dasturiy ta’minotlarni ilmiy asosda o‘rganish, ularning imkoniyatlarini solishtirish, amaliy samaradorligini baholash va tizimlarni takomillashtirish bo‘yicha takliflarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekistonda Buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirishda eng ko‘p qo‘llaniladigan dasturlardan biri 1C: Buxgalteriya hisoblanadi. Ushbu tizim O‘zbekiston qonunchiligi talablari asosida moslashtirilgan bo‘lib, u xo‘jalik yurituvchi subyektlarning barcha turida buxgalteriya va soliq hisobini yuritish, kadrlar va ish haqi hisobini shakllantirish, ombor operatsiyalarini boshqarish, asosiy vositalar harakatini nazorat qilish kabi turli funksiyalarni to‘liq qamrab oladi. 1C tizimi real vaqt rejimida ishlaydi hamda ko‘p foydalanuvchilik muhitida xavfsiz ishlashni ta’minlaydi. Tizimning asosiy afzalliklaridan biri uning O‘zbekiston qonunchiligidagi o‘zgarishlarga mos holda muntazam yangilanib borilishidir. Biroq tizimning murakkab interfeysi va uni to‘liq o‘zlashtirish uchun mutaxassis yordami zarur bo‘lishi bu dasturdan foydalanishda ayrim cheklovlarni yuzaga keltiradi.

Mahalliy “BePro Norma” kompaniyasi tomonidan ishlab chiqilgan 1UZ dasturi esa kichik va o‘rta biznes uchun qulay yechim sifatida shakllangan. U o‘zining sodda interfeysi, arzon narxi va O‘zbekiston soliq hamda statistika tizimiga mos integratsiyasi bilan ajralib turadi. 1UZ dasturi orqali moliyaviy hujjatlar, soliq hisobotlari, tovar-moddiy zaxiralari, kassa va bank operatsiyalari, inventarizatsiya


jarayonlari avtomatlashtiriladi. Dasturning bepul boshlang‘ich versiyasi mavjud bo‘lgani bois u kichik tadbirkorlik subyektlari orasida ommalashgan.

CFO.UZ platformasi esa qulay interfeys va sodda boshqaruv tizimi bilan ajralib turadi. Tizim soliq hisob-kitoblarini avtomatik shakllantiradi, hisobot muddatlarini eslatadi, barcha moliyaviy ko‘rsatkichlarni yagona elektron oynada jamlaydi. Mazkur platforma foydalanish oson bo‘lganligi sababli texnik bilimga ega bo‘lmagan tadbirkorlar uchun ham mos yechim sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, Smartup va IOTA kabi mahalliy ishlab chiquvchilar tomonidan yaratilgan milliy ERP tizimlari yirik korxonalar, sanoat tarmoqlari va holding kompaniyalarida kompleks boshqaruvni avtomatlashtirishda keng qo‘llanilmoqda. Ular savdo, logistika, ombor, kadrlar boshqaruvi, CRM va BI kabi jarayonlarni yagona axborot tizimida birlashtirish imkonini beradi. Ushbu tizimlarning asosiy ustunliklari – O‘zbekiston sharoiti, tili va qonunchiligiga to‘liq mosligi hamda bulutli texnologiyalar asosida masofadan ishlash imkoniyatining mavjudligidir.

Tahlil davomida o‘tkazilgan so‘rovnomada 200 ta tadbirkorlik subyektlari ishtirok etdi. So‘rovnoma natijalariga ko‘ra, tadbirkorlik subyektlarining 75,3 foizi 1C: Buxgalteriya, 14,5 foizi 1UZ dasturlaridan foydalanishi aniqlandi.

1-rasm. Korxonalarda foydalaniladigan dasturiy mahsulotlar



Shuningdek, tadbirkorlarning aksariyati dasturiy mahsulotlar uchun o‘rtacha yillik xarajat sifatida 1 mln so‘mdan 5 mln so‘mgacha mablag‘ sarflashi aniqlangan. Bu ko‘rsatkich umumiy respondentlarning 52,2 foizini tashkil etadi. Faoliyat ko‘lami keng bo‘lgan o‘rta va yirik korxonalar esa mos ravishda 5 mln so‘mdan 10 mln so‘mgacha (17,8 foiz), hamda 10 mln so‘mdan yuqori (13,9 foiz) xarajatlarni amalga oshiradi. Ushbu ma’lumotlar korxonaning hajmi, texnik infratuzilmasi va moliyaviy jarayonlarga bo‘lgan talab darajasiga ko‘ra dasturiy mahsulot xarajatlari sezilarli farq qilishi mumkinligini ko‘rsatadi.

Xalqaro amaliyotda, xususan AQSHda QuickBooks Online eng keng qo‘llaniladigan buxgalteriya tizimlaridan biri hisoblanadi. Bulutli texnologiyaga asoslangan mazkur platforma bank hisobvaraqlarini avtomatik sinxronlashtirish, hisob-fakturalar yaratish, xarajatlar tahlili, inventarizatsiya, loyiha rentabelligini aniqlash, mobil ilova orqali masofadan boshqarish kabi imkoniyatlarni taqdim etadi. Turli tarif rejalarining mavjudligi kichik, o‘rta va yirik biznes uchun mos variantlarni tanlash imkonini yaratadi. Xero dasturi ham AQSH bozorida keng tarqalgan bo‘lib, u

real vaqt rejimida moliyaviy jarayonlarni avtomatlashtirish orqali kichik biznes faoliyatini sezilarli darajada yengillashtiradi.

Buyuk Britaniyada esa Sage Accounting tizimi keng ommalashgan. Dastur sun'iy intellektga asoslangan funksional imkoniyatlarga ega bo'lib, moliyaviy hisobotlar, soliq jarayonlari, ish haqi hisobini avtomatlashtirish, “Making Tax Digital” talablari asosida soliq hisobotlarini elektron shaklda topshirish imkoniyatlarini yaratadi. Korxona miqyosiga qarab Sage Individual, Sage Accounting va Sage Intacct kabi versiyalar qo'llaniladi.

O'zbekiston bozorida mavjud dasturiy mahsulotlar o'zining funksional imkoniyatlari bilan milliy talablarga muvofiq bo'lsa-da, ular xalqaro standartlarga to'liq moslashgan deb bo'lmaydi. Xususan, MHXS bo'yicha avtomatlashtirilgan hisobot shakllarining yo'qligi, ayrim dasturlarda foydalanuvchi interfeysining murakkabligi, korxona jarayonlarining to'liq integratsiya qilinmaganligi, raqamli ko'nikmalarga ega mutaxassislar yetishmovchiligi kabi muammolar mavjud. Xalqaro amaliyotda esa avtomatlashtirilgan soliq hisoboti, bank integratsiyasi, tahliliy modul, yuqori darajadagi ma'lumotlar xavfsizligi, bulutli texnologiyalar keng qo'llanilishi bilan ajralib turadi.

Buxgalteriya hisobini modernizatsiya qilish jarayonida MHXS bo'yicha yagona elektron hisobotlar bazasini yaratish, davlat organlari axborot tizimlari bilan integratsiyani kuchaytirish, kichik biznes uchun arzon, qulay va moslashuvchan dasturiy yechimlarni ishlab chiqish, ERP tizimlarida xalqaro standartlar bo'yicha avtomatik hisobot shakllantirish imkoniyatlarini joriy etish zarur. Shuningdek, XBRL tizimini joriy etish va uni Yagona hisobotlar tizimi bilan integratsiya qilish, buxgalterlar va moliya mutaxassislarining raqamli kompetensiyalarini oshirish, shaxsiy kabinetlar orqali MHXS bo'yicha hisobot topshirish imkoniyatlarini kengaytirish, doimiy yangilanadigan elektron resurslarni yaratish hamda bulutli texnologiyalar asosida ma'lumotlarni markazlashgan holda saqlash tizimini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda buxgalteriya hisobi jarayonlarini avtomatlashtirish yo'nalishida katta salohiyat mavjud bo'lib, ushbu jarayonlarni yanada takomillashtirish milliy iqtisodiyotning raqamli transformatsiyasida muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Milliy va xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirish, dasturiy mahsulotlar funksionalligini kengaytirish, davlat organlari o'rtasida axborot almashinuvini kuchaytirish hamda mutaxassislar malakasini oshirish orqali buxgalteriya hisobini samarali avtomatlashtirish va xalqaro standartlar darajasiga ko'tarish imkoniyati mavjud.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-sentabrdagi PQ-282-son “Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori. <https://lex.uz/docs/-7728924>

2. Buxgalteriya hisobining axborot tizimlari: O'quv qo'llanma / A.A.Karimov va boshqalar. - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2018.

3. Smith, J. “Cloud Accounting Solutions for Small and Medium Enterprises”, New York: Financial Times Press (2019).

4. R. Busulwa and N. Evans. “Digital Transformation in Accounting”, London and New York: Routledge (2020).
5. 1C: Buxgalteriya dasturi rasmiy sayti. <https://1c.uz>
6. QuickBooks Online rasmiy sayti. <https://quickbooks.intuit.com>
7. Sage Accounting rasmiy sayti. <https://www.sage.com>
8. XBRL International rasmiy sayti. <https://www.xbrl.org>